# Xalq so'zi

O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • www.xs.uz • E-mail: info@xs.uz • 2026-yil 12-may, № 95 (9266) Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# RIYOSIZ SO'ZLAR




**Usmon Azim,**
**O'zbekiston xalq shoiri**


## MUQADDIMA

*Haqiqiy yozuvchi-shoirlar haqiqatni yozishni xush ko'radilar.*

*Dunyoning qaysi bir chetidagi adolatsizlik ularga xuddi o'zining uyida ro'y berayotgandek tuyuladi. Qaydadir adolatning barqarorligi yoki g'alabasi ularning ruhini ko'taradi. Har bir yaxshi odamning muvaffaqiyatidan quvonadilar, odamlarning muammolari esa ularning ham muammolariga aylanadi.*

*Ular vatanparvar. Har holda O'zbekistonda xuddi shunday. Vatanning gullab-yashnashi, ijobiy o'zgarishlar har bir fuqaroning hayotini yuksaltirish sari qo'yilgan qadam ekanligini teran his qiladi, kayfiyatlari ko'tariladi.*

### Taraqqiyot odimlari

Xudoga ming shukrkim, bu o'zgarishlar har soatda, har kun ro'y berib turibdi. Butun mamlakat harakatda. Eng muhimi, bu islohotlar jaydari tusda emas, balki jahonning eng ilg'or texnologiyalari asosida olib borilmoqda. Sharoitlar yaratilgani tufayli investitsiyalar bemalol kirib kelyapti. Rivojlanish shiddati butun mamlakatni qamrab olgan.

Qalam ahli bu va ko'plab boshqa yutuqlardan xabarlari bor. Muammolarni bartaraf etish yo'lidagi sa'y-harakatlarni ham mudom sezib turadilar.

Yaqinda bir guruh ijodkor do'stlar bilan qo'shni do'st mamlakatda safarda bo'ldik. Bir kech o'z-o'zidan badiha davra tuzilib, suhbat gurullab ketdi. Avval mezbon mamlakatni O'zbekiston bilan taqqos qila boshladik. Baravariga "Biz oldinga ketibmiz" degan xulosaga keldik! Bugungi O'zbekiston haqida gaplashdik. Men yetmish olti yil umr ko'rganimni, ammo xalqimiz hech qachon bunday yayrab yashamaganini aytdim. Davradagilar bu gapimni ham bir og'izdan tasdiqlashdi. Ha, shunday! Hech qachon bunday yashamaganmiz!

Yuraklarni faxr bilan to'ldirgan bu e'tiroflar qachon ko'nglimizni to'ldirdi?

Axir biz e'tirof etgan yutuqlar o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q-ku?

Uning ortida kimning mehnatiyu zahmati, betinim harakati yotibdi?

Mamlakatimizning barcha mintaqalariga yoyilgan bunyodkorlikka kim g'ayrat-shijoat bag'ishlayapti?

Bu savollarga javob bitta: ushbu olamshumul zafarlarning ortida bir kishining, ha, bir kishining – O'zbekiston Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning fidokorligi turibdi.

Oz emas, ko'p emas, Yangi O'zbekistonni qurmoqchi bo'lgan shu azamat insonning misli ko'rilmagan fidokorligi!

Men bu inson haqida ko'p o'yladim. Oxiri bu odam haqida yozmasam, adolatdan bo'lmas ekan degan qarorga keldim.

Yo'q, xushomad qilish niyatim yo'q. Nimaga xushomad qilaman? Yoshim bir joyga borgan bo'lsa, mukofotu unvonlarni ham hech kimga likillamay olgan bo'lsam...

### 1

Bu islohotlar boshlanganda mamlakat qay ahvolda edi?

Odamlar qanday yashayotgan edi?

O'zimning boshimdan o'tkazganlarimni bir eslay.

Men ko'p qavatli uyda yashayman. Uyimiz necha-necha qishlar bo'yi isimasdi. Bir farzandim keyinchalik "Shu uyda bir umr sovuq qotib ulg'aydik", deb esladi.

Nafaqaga chiqdim. "Nafaqangning yarmi to'lanadi" deyishdi. Nima deyman? Xo'p-da... Ko'pga kelgan to'y.

Maosh hemiri. Yarim pensiyaga qo'shib, oydan-oyga arang yetkazamiz.

To'lov plastik kartasi bilan mashmashalarni-ku aytmay. Do'konga borasan. Kerakli molning narxini so'raysan. "Naqd olsangiz sakson so'm, plastik karta bilan to'lasangiz yuz"...

Denovda bozorning naq o'rtasida plastik kartalardagi pullarni naqdga almashtirish "punkti" ochildi. O'sha bezbet shaklda – yuz so'm yechib olishsa, sakson so'm qo'lingga berishadi. Eng dahshati, bu punktni bunday hollar yuz bermasligini nazorat etuvchi tashkilotlarning odamlari yuritishadi. Dodingni kimga aytishni bilmaysan..

Bu lo'ttibozliklar butun xalq ko'z-o'ngida ro'y berdi. Hech kim "miq" etolmadi. Qo'rquv. Bu qo'rquvdan yaralgan taqdirsizlik – ertani o'ylashdan cho'chish mudom yelkadan toshday bosib turdi.

Qarz ko'tardim. Dollarda qarz berganlarga dollarda qaytarib berish kerak. Bank kassalarining yaqiniga ham borolmaysan. Banklar dollarni sotuvga chiqarib, o'zlari sotib olib yotibdi – odamlarini qo'yib qo'yishgan – allaqanday shanqi xotinlar...

Bozorga borasan. "Dollarchilar shaykasi" har qadamda... Dollarning narxi rasmiy narxdan ikki barobar baland. Ko'r bo'lib, olasan.



Surxondaryodan g'alla yetishtirgan bir tadbirkor menga uchrashib, g'allasini topshirganini, ammo haqini yeb ketishganini aytdi. Men bir-ikki amaldorga aytgan bo'ldim. Biror natija chiqmadi. Tadbirkor shu xo'rlikning jabridan o'lib ketdi...

U-bu joylardagi o'zgarishlar odamlarning dasturxoniga yetib kelmadi. Mamlakatni firibgarlar bosdi.

Bu ishga qarshi kurashishi lozim bo'lgan tashkilotlar davlat ichida davlat tuzdilar. Odamlar ustidan zo'ravonlik joriy etildi. Masalan, Surxondaryoda xavfsizlik xizmati allaqanday fashistik (boshqa so'z ularning qilmishini ifodalab berolmaydi) tizim o'rnatdilar. Odamlarni pashsha o'rnida ko'rmadilar. Xo'rladilar, mulklarini tortib oldilar, misli ko'rilmagan qiynoqlarga soldilar, o'ldirib ham yubordilar. Qiynoqlarning Stalin zamonida kechgan usullarini qo'lladilar. Ularni yanada yangi "pog'ona"larga ko'tardilar.

– Tirnoqlarimni sug'urib oldi, – deb zorlanib eslaydi ularning qo'liga tushgan bir begunoh. – Hammasini baravariga sug'ursa ham mayli edi, har kun bittasini sug'urardi...

Hatto hokimlarga ham tazyiq o'tkazildi. Bu yurtda ular ham ishlashdan bezib qoldilar. Noiloj, ishdan ketish haqida ariza yozdilar.

Mustaqillikdan odamlarning ko'ngli qola boshladi.

Bitta-yarim tanishlar menga ham ta'na qildi: "Ana, siz orzu qilgan istiqlol"...

Rosti, men ham bebaxt yashadim. Gazeta-jurnallarda yozganlarimni nashr etish nari tursin, ism-familiyamni ham o'chirib tashlaydigan bo'lishdi. Men nima qilgan edim? Bir ko'rsatuvda "Birovlar harom-harish yo'l bilan pul to'playaptilar – payti kelgach pullarini ko'tarib, xorijga jo'nab ketadilar", degan rost gapni aytgan edim xolos. Bu ko'rsatuv tufayli televideniyedagi necha-necha ijodkorlar jazolandi, ishdan ketdi...

Tan olaylik, mustaqillikning ilk davrida, yangi tizimli mamlakatni bunyod etish, nochorlikdan qutulish uchun bir qadar qattiqqo'llik ham zarur edi. Ammo mamlakat rivojlanib borgan sari bu qattiqqo'llik o'rnini adolat o'lchamlariga mos yo'riqlar asta-asta egallab borishi kerakligi ham barchaga ayon edi. Biroq bunday bo'lmadi. Chunki eng tepadagi odam ham nayrangbozlarning qo'lida asirday yashadi. Joylarda ro'y berayotgan, hatto o'z oilasida ro'y berayotgan voqealardan ham g'ofillikda qoldi. Barcha adolatsizliklar sir tutildi.

Yuqoridagi yozganlarimni hech kim rad etolmaydi. Ularni bor bo'yicha ko'rsatish uchun esa necha jildlab kitoblar yozsa bo'ladi. Men faqat boshimdan o'tkazganlarim va tug'ilgan yurtim Surxondaryoda ro'y bergan mash'um voqealarning bir qisminigina eslayapman.

Avj olgan muammolarni bartaraf etish yo'llarini hech kim bilmasdi.

Biroq Parvardigor bilguvchidir! U mamlakatni rivojlanish sari yo'naltirish uchun nima qilish kerakligini aniq bildi.

Mamlakat Prezidentligiga Shavkat Miromonovich Mirziyoyev saylandi va... birdan mo'jizaga o'xshash hodisalar ro'y bera boshladi.

→ 2

### Fikr

## YANGI O'ZBEKISTON XALQARO HAMKORLIK VA ISHONCHLI MULOQOT MAYDONIGA AYLANMOQDA

*Yer yuzining sayqali Samarqand shahri may oyi boshida yana bir bor sivilizatsiyalar chorrahasi sifatida xalqaro hamjamiyat e'tiborini o'ziga qaratdi. Xabaringiz bor, bu yerda Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 59-yillik yig'ilishi o'tkazildi. Hech shubhasiz, bu Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizni xalqaro hamkorlik va ishonchli muloqot maydoniga aylantirish borasida olib borilayotgan ochiq hamda pragmatik siyosatning amaliy ifodasidir.*

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, Yangi O'zbekiston xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalarni muhokama qilish uchun tobora muhim lokatsiyaga aylanib bormoqda.

Forumda mamlakatimiz islohotlar yo'lining samaradorligiga oid aniq dalillar keltirildi. Xususan, so'nggi yillarda iqtisodiyotimizga 150 milliard dollar xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. YAIM hajmi 50 milliarddan 147 milliard dollargacha, tovar va xizmatlar eksporti esa uch barobar oshdi. Kambag'allik darajasi deyarli 35 foizdan 5,8 foizgacha pasaydi. Bu 8,5 million nafar muhtoj fuqaroning daromadlari sezilarli darajada oshirilganini anglatadi.

Xalqaro moliyaviy hamjamiyat ham bu o'zgarishlarni alohida e'tirof etayotir. 2020-yildan buyon mamlakat suveren kredit reytinglarini izchil yaxshilab bormoqda.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston OTBga a'zo bo'lganiga o'ttiz yildan oshdi. O'tgan fursat mobaynida hamkorlik alohida infratuzilmaviy qarzlardan to'laqonli strategik sheriklikka aylandi. Ayniqsa, 2016-yildan boshlab munosabatlarda sifat jihatdan burilish yuz berdi.

Bugungi kunda amalga oshirilgan va davom etayotgan loyihalarning umumiy portfeli qariyb 16 milliard dollarga yetdi. 2025-yilda esa yillik majburiyatlar hajmi rekord darajada 1,4 milliard dollardan oshdi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston bankning mintaqadagi yirik hamkorlari qatoriga kirdi.

→ 3

### Aks sado

## XOTIRAGA SADOQAT – MILLAT QUDRATI

*9-may – Xotira va Qadrlash kuni xalqimiz uchun chuqur ma'naviy ahamiyatga ega sana hisoblanadi. Ushbu sana nafaqat Ikkinchi jahon urushi qurbonlarini yod etish, balki yurt tinchligi, inson qadri va Vatan ozodligi yo'lida jon fido qilgan insonlar xotirasiga ehtirom ko'rsatish, hayot bo'lgan fidoyilarni qadrlash kunidir.*

Insoniyat tarixidagi eng dahshatli qirg'inlardan biri hisoblangan Ikkinchi jahon urushi millionlab odamlar umriga zomin bo'ldi. O'sha og'ir yillarda ko'p millatli O'zbekiston xalqi frontda ham, front ortida ham yuksak matonat va jasorat namunasini ko'rsatdi. Jang maydonlariga 1 mln. 950 ming yurtdoshimiz safarbar etildi. Ularning yarim milliondan ziyodi halok bo'ldi, minglab insonlar bedarak ketdi, nogiron bo'lib qaytdi. Bu raqamlar ortida qancha oila dardi, qancha ona ko'zyoshi, qancha orzular qolib ketganini tasavvur qilish qiyin emas.

Eng muhimi, xalqimiz urushning eng og'ir pallalarida ham insonparvarlik va bag'rikenglik fazilatlariga sodiq qoldi. O'zbekiston front ortidagi mustahkam tayanchga aylandi.

→ 3

## TA'LIM SIFATI VA QAMROVINI OSHIRISH

### inson kapitalini rivojlantirishning strategik asosi

*Hozirgi globallashuv va bilimlar iqtisodiyoti sharoitida ta'lim tizimi davlatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilovchi asosiy strategik omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.*

### Mulohaza

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda inson kapitali umumiy milliy boylikning 65 – 80 foizini tashkil etadi. Shu jihatdan, ta'limga yo'naltirilgan islohotlar nafaqat ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, balki milliy raqobatbardoshlikni oshirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Shu bois yurtimizda ta'lim sifati va qamrovini oshirish orqali yuqori malakali, innovatsion fikrlaydigan va mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kadrlar tayyorlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ta'lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish va raqamli ta'lim infratuzilmasini kengaytirish asosiy maqsadlar sifatida belgilangan.

Xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar inson kapitali orqali yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi. Jumladan, Finlyandiya 1990 – 2010-yillar davomida ta'lim sifatini oshirish hisobiga mehnat unumdorligini 1,8 baravarga oshirgan. Janubiy Koreyada ta'limga ajratilgan xarajatlar YAIMning 5 foizidan ortig'ini tashkil etib, mamlakatni qisqa muddatda yuqori texnologiyali iqtisodiyotga aylantirishga zamin yaratdi. Germaniyada esa dual ta'lim tizimi orqali yoshlarning bandlik darajasi 2015 – 2022-yillarda 7 foiz oshgani kuzatilgan.

Keyingi paytda O'zbekistonda ham xalqaro tajribalarni joriy etish asosida ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni kuchaytirish choralari ko'rilmoqda.

→ 3

Fakt va raqamlar

## GIDROENERGETIKA SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI



So'nggi yillarda sohada salmoqli natijalarga erishildi. 2017-yilda **36 ta** bo'lgan gidroelektr stansiya soni 2025-yilda **100 taga** yetkazildi. Ularning umumiy quvvati **1,6 gigavattdan 2,4 gigavatt**gacha oshdi.

2026 – 2032-yillarda umumiy qiymati **5,8 milliard dollar** bo'lgan **73 ta** istiqbolli loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan.

Joriy yilda **13 ta** GESni foydalanishga topshirish ko'zda tutilgan. Ularning umumiy quvvati **114 megavatt**, yillik ishlab chiqarish hajmi esa **537 million kilovatt-soat**ni tashkil etadi.

Xalq so‘zi
www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz
2026-yil 12-may

# RIYOSIZ SO‘ZLAR



Yuqorida aytib o‘tgan ko‘rgiliklar bitta-bitta yechim topib ketaverdi. To‘lov plastik kartalari risoladagiday ishlay boshladi, pensiyalar to‘liq beriladigan bo‘ldi, banklar yangicha ishlash tizimiga o‘tdi – xohlasalaring, mana so‘m, istasalaring dollar, marhamat... Surxondaryodagi odam qiyofasidagi hayvonlar ham jazosini oldi. Ammo bu yechimlarni topish uchun qanchalar sabot va jasorat kerak bo‘lganligi faqat va faqat Shavkat Miromonovichning bir o‘ziga ayon. Axir qalamga olganim hodisalardan tashqari, u kishining zimmasida yana qancha-qancha tashvishlar bor edi.

Birgina Surxon xalqini zor qaqshatgan mustaqillikning zararkunandalari “shayka”sini tugatish naqadar qiyin bo‘lganini tasavvur qilaman. Axir ular osmondan tushmagan – bu gumrohlarni Toshkentdan martabasi baland, beli baquvvat, birovni nazar-pisand qilmaydigan homiylari qo‘llab-quvvatlab turardi. Bu jinoyatchilar to‘dasining ko‘lami juda katta – bir-birlari bilan zich bog‘lanib ketgan; xalqning manfaati degan muqaddas tushunchani tushida ham ko‘rmagan, odamlar hayotini xasdan ham arzon bilgan bedavolardan iborat edi. Avval mana shu to‘daning boshi kesildi. Bu ish oson bo‘lmadi. Bo‘shangroq bir odam bo‘lganda, ular bilan murosa-madora etib ketaverardi. Ammo Shavkat Miromonovich bunday qilishni o‘ziga ep bilmadi. Chunki o‘rtada Vatan, Xalq taqdiri bor edi. Yangi O‘zbekistonni bunday to‘dalarga panja orasidan qarab emas, balki bu toifa noqislardan tozalab, pokiza niyat va ezgu harakatlar bilan yaratish lozimligini Shavkat Miromonovich mudom teran his etib turardi.

Vatanni halol odamlar yaratishini bu inson juda teran tushunadi.

Qotillik illati yuqqan bu kaslardan el-yurt ozod qilindi. Avval “tepa”dagi, keyin pastdagi qatlam ildizi bilan sug‘urib tashlandi. Bu gaplar faqat aytishga oson...

Mamlakatimiz tarixida bu voqealar kimgadir juda kichik bir epizod bo‘lib tuyular, ammo xalqni boshiga chiqib olgan bunday jirkanch to‘dalardan ozod etish uchun davlatimiz rahbariga qanchalar matonat va qat’iyat kerak bo‘lganligini bir tasavvur qilib ko‘ring!

Esimda, bu voqealar nihoyasiga yetkazilgach Prezidentimiz Surxonga tashrif buyurib, “Surxondaryo xalqi endi ozodsan!” deb elga murojaat etgan edi.

Haqiqatan ham, Surxondaryo erkin nafas oldi.

Men faqat yaxshi bilganim Surxondaryo haqida yozyapman. O‘zbekistonda esa o‘n to‘rtta mintaqa bor. Ularning muammolarini hal etishdagi Prezidentimizning mardonavor sa’y-harakatlarini qalamga olish uchun esa bu maqola torlik qilishini sezib turibman.

## 2

Odamlar yaxshilikka tez ko‘nikadi. Bir-ikki “yaxshi bo‘ldi-ye!” deb quvonishadi-yu, xuddi hamisha shunday bo‘lganday o‘tib ketaveradilar. Nazarimda shunday bo‘lgani ham durust! Odamlar odamga o‘xshab yashashni o‘rganyapti! Munosib yashash mo‘jiza emas, shunchaki har kun biz yuzma-yuz duch keladigan voqelik ekaniga ko‘nikib boryapmiz-da!..

Ammo men rivojlanish jarayoni shu qadar jadal borayotganidan baribir quvonaman.

Avliyolar, olimlar maskani bo‘lgan Termiz es bilganimdan buyon ko‘rimsiz, changu to‘zonga qorishgan, soya-salqindan yiroq – yopiq harbiy bir shaharcha edi. Unga kirishning o‘zi ham bir mashaqqat – harbiylarning posti o‘rnatilgan, har bir yo‘lovchining pasportini sinchiklab tekshirishar, agar Surxondaryo hisobida bo‘lmasang, o‘tib ko‘r-chi!

Mustaqillikdan keyin esa, xabaringiz bor, bunday tekshiruvlar yanada avj oldi. Endi har bir viloyat o‘rtasida sun’iy to‘siqlar – militsiya postlari o‘rnatildi. Bu hol xalqimizning mamlakatimiz bo‘ylab erkin harakatlanishiga xalaqit beradigan ortiqcha mashmasha edi. Pasportni unutgan bo‘lsang, bu postlardan o‘tishning yagona yo‘li – yo‘lini topib bu posbonlarga pora berish... Boshqa ilojing yo‘q. Nazarimda bu postlar xuddi shunday vaziyatni yaratish uchun qo‘yilgan tuzoq edi...

Surxondaryoda esa bu hol yo‘lovchini jiddiy tahlikaga soladigan darajada murakkab edi. Viloyatga kirish – Darband postida xuddi xorijga ketayotganingdek bor-yo‘g‘ing tintilar; yuklaring esa tasmaga solinib, o‘tkir ko‘zli uskunalar yordamida ko‘zdan kechirilardi. Bu ham yetmaganday, chamadonu sumkalar ham ochib tekshirilardi... Tintuv. Xullas, pora bermasang qutulib bo‘psan. Termizga va Sariosiyoga kiraverishda yana shu holga duch kelinar edi.

Bu to‘siqlarning hammasi Shavkat Miromonovichning bir shashti bilan yo‘q bo‘ldi.

Changu g‘uborga qorishgan Termiz ham birdan o‘zgara boshladi.

Hozir bu shahar ko‘chalarining ikki chetida anvoyi daraxtlar soya tashlab turibdi. Ketguncha yam-yashil chimzor. Gullar ajib bir did bilan ekilgan. Yaqinda mehmonxonadan mashinada chiqib, ana shunday go‘zal – bir qarich ham uzilmagan manzarani oralab aeroportgacha bordim. Xorijiy kurort shaharchalarni eslatadi. Yangi qurilgan shinam, ko‘rkam turar-joy imoratlari ham yarashiqli. Menga o‘qituvchilardan biri “Odamlarning uy-joyga ehtiyoji to‘liq qondirilgan, ikki-uch oila bir xonadonda tiqilib yashashdan xalos bo‘lgan”, deb qoldi. Amaldor emas, o‘qituvchi aytdi.

Termiz esa o‘syapti. Baland-baland binolar qad ko‘taryapti. Hatto shahar erkin nafas rostlab – tiqilmay kengayishi uchun qo‘shimcha yerlar kerakligi ko‘zga tashlanib qoldi. Prezidentimiz bu masalani ham hal qilib berdi – shaharga qo‘shimcha yerlar ajratildi.

O‘quvchida Surxondaryoda faqat Termiz gullab-yanayotgan ekan degan taassurot qolmasligi uchun aytib qo‘yay, viloyatdagi barcha tumanlar o‘zgacha qiyofa kasb etgan. Chamasi besh-olti yil avval mashinada bir guruh san’atkorlar bilan Surxonning shimoliy hududlari sari ketayotgan edik. Yo‘lda bir zum chalg‘ibman. O‘zimga kelib qarasam, bir notanish shaharning yonidan o‘tyapmiz. Ko‘p qavatli uylar, oralarida orasta yo‘laklar, daraxtlar, bolalar maydonchalari ko‘z oldimdan lip-lip o‘tadi. Qayerga kelib qoldik? Surxondaryoning har qarich yerini bilaman. Nahotki, tush ko‘rayotgan bo‘lsam? Biroz yurgach angladim, bu – Denov. Ha, o‘zim boshdan-oyoq kezib-bilib yurganim Denov! Ey Xudo! Bu shahar ichidagi shahar – mo‘jiza qachon, qanday barpo bo‘ldi? Shuncha tezmi? Angladim, bu mo‘jiza Prezidentimizning shijoati tufayli bunyod bo‘lgan! So‘ng tasavvur qildim – mamlakatda qancha tuman bor, qancha shahar bor, mahallalar bor... Barchasida mana shunday bunyodkorlik ketayotgan bo‘lsa kerak-da! Ketyapti!

Butun mamlakatda bunday yoppa bunyodkorlikni qaysi qudrat harakatga keltiryapti? Bu savolga javob aniq: Shavkat Miromonovich Mirziyoyev!

## 3

Men majlislarga kam qatnashaman. Maqsad majlis o‘tkazishdangina iborat bo‘lgan yig‘inlardan o‘zimni tortaman.

Ammo yaqin kunlarda ikki majlisda qatnashib, vaqt qanday o‘tganligini sezmadim. Zavqlanib o‘tirdim. O‘zbekistonni sevadigan bir vatanparvar sifatida faxru quvonchga to‘ldim. Gap Vatanimizning bir bo‘lagi bo‘lgan Surxondaryoning ertasi haqida ketdi. Prezidentimiz viloyatda ikki ming o‘ttizinchi yilga qadar amalga oshiriladigan rejalar haqida so‘zladi.

Majlisda rejalar haqida shunchaki gapirilmadi, balki uni amalga oshirish uchun puxta, ko‘lamli va aniq tayyorgarlik ko‘rilgani ma’lum bo‘ldi. Masalan, mana bu tarzda: reja loyihasi tayyor, mablag‘ bor (bank boshlig‘i tasdiqlaydi yoxud jahondagi qaysi investor bilan kelishilganligi aytiladi), bu rejani amalga oshiradigan tashkilot ham shay turibdi. Ishni qachon boshlash sanasi ham avvaldan aniqlangan. Mutasaddilar yana bir bor majlis ahli oldida axborot berdilar. Har bir loyihada qancha ish joyi yaratilishi ham ochiqlanib borildi. Yuzlab, minglab...

Har bir reja haqida so‘z ketganda, shu tartibga rioya qilindi. Biror-bir ishni amalga oshirish orzu sifatida aytilmadi. Aksincha, qat’iy ishonch bilan axborot berildi.

Bu rejalarning bir uchi xorijga borib qadalganda esa onlayn tarzda majlisda qatnashayotgan elchilarimiz chet ellik hamkorlarning hozir turganliklarini, O‘zbekistondan imo bo‘lgach, shu zahotiyoq uchib borishlarini ma’lum qildi. Xorijlik hamkorlar ham unday-bunday mamlakatlardan emas – Xitoydan tortib Janubiy Afrika Respublikasigacha!

Shavkat Miromonovich hech narsani unutmadi. Prezident bugun nima ishlarni bajarish lozimligini, ertaga nimani amalga oshirish kerakligini ichki – ong orti tuyg‘u bilan his qilishini shundoq sezib turdim.

Kattayu kichik muammolarning yechimini topishda bir xil mas’uliyat bilan yondashishlariga, ba’zan badihalarga ham guvoh bo‘ldim.

Majlisdan avval boysunlik – kurash bo‘yicha birinchi o‘zbek jahon chempioni Toshtemir polvon To‘raboyev bilan uning yosh kurashchilar uchun ochilgan internat-maktabi haqida suhbatlashgan edik. Majlis so‘ngrog‘ida Prezident ana shu polvonga murojaat qilib qoldi.

– Sening internatingning binosi yo‘g‘-a?

– Yo‘q, – dedi polvon.

– Bolalar qayerga o‘qishga boradi?

– Shu atrofdagi qishloqlardagi maktablarga.

Shavkat Miromonovich ko‘zlari bilan zaldan kerakli odamni izlab topdi:

– Puling bor-a?

“Ha”, deb o‘rnidan qo‘zg‘aldi “kerakli odam”.

– Shu polvonning internatiga maktab qurib berolasanmi?.

“Kerakli odam” jon deb rozi bo‘ldi.

– Birinchi sentabrgacha tayyor bo‘lsin...

Zavqlanganimdan, sekingina bo‘lsa-da “vo-ya”, deb yubordim. Axir Shavkat Miromonovichning yelkasida salkam o‘ttiz to‘qqiz million xalqning tashvishi! Mamlakatda, e-he, qancha maktab bor! Endi kelib-kelib Prezident Toshtemir polvonning maktab-internati muammosini eslab o‘tirsa!..

Yig‘inda menga ham so‘z berildi va men bu majlisni “Surxondaryoliklar uchun “bayram” deb atadim. Chunki tushunishimcha, Vatan degan muhtasham imorat rivoji uchun qo‘yilgan har g‘isht – bayram. Bugun esa qanchadan-qancha g‘ishtlar qo‘yildi!

Men bu majlisda aytilgan – amalga oshiriladigan har bir reja yurt xazinasini qanchalar boyitishi, odamlar dasturxoniga qanchalar fayz-baraka kiritishi haqidagi raqamlarni eslab o‘tirmayman. Chunki ular matbuotda yetarlicha yoritildi.

Ammo bir qutlug‘ xabarni aytmasam bo‘lmaydi.

Yigirma oltinchi aprelda Boysunga boradigan bo‘ldim.

Termizdan keladigan yo‘l manzilga olti-yetti kilometr qolganda, yuqoridagi majlisda tilga olingan – bir necha yillardan buyon qurilishi davom etayotgan Darband – Denov trassasiga qo‘shiladi. Biz bo‘lajak trassaga tushdik. Pishiq qilib ishlangan beton yo‘l. G‘izillab ketyapmiz. Faqat ikki joyda gavarasi ko‘tarilib, qurilishi nihoyasiga yetmagan ko‘priklarni aylanib o‘tdik xolos. Ichimda, bir-ikki oyda bitib qolar, deb o‘yladim.

To‘rt kundan keyin “Boysun bahori” bayramiga qatnashish uchun shu yo‘ldan yana o‘tishga to‘g‘ri keldi. Bu safar mashinamiz tayyor bo‘lgan ko‘priklar ustidan g‘izillab o‘tib ketdi! Ha, tayyor bo‘lgan ko‘priklar ustidan! Oradan faqat to‘rt kun o‘tib! Yana ruhimni quvonch seli bosdi! Qoyil! Va Termizdagi majlisda aytilgan barcha rejalar o‘z muddatida bajarilishiga amin bo‘ldim...

Prezidentimiz yig‘in so‘ngida shu taxlit rejalar bilan har viloyatga va Qoraqalpog‘iston Respublikasiga borishini ta’kidlab o‘tdi. Yana mamlakat kelajagini yaratish yo‘lida yoppa, jadal harakat! Bir zum bo‘shashmaydigan, el dasturxoniga baraka beradigan rejalar. Bu rejalarning asoschisi Shavkat Miromonovich ham bir zum tinim bilmaydigan, mudom xalq manfaati uchun kuyib-yonadigan inson! Ezgu niyatlariga farishtalar omin deydi! Parvardigor rahmat eshigini ochadi!

Men yaqin kelajakda yurtimizning dunyodagi eng ilg‘or mamlakatlar qatoridan o‘rin olishiga ishonaman. Bu ishonchimga qo‘shilmaydiganlar bo‘lsa, Jahon bankining O‘zbekistonning rivojlanish sur’ati haqidagi raqamlariga murojaat etishsin. Bank 2026-yilda mamlakatimiz yalpi ishlab chiqarish sur’atini 7,7 foiz etib prognoz beryapti. Xorijlik mutaxassislarning fikricha, o‘n-o‘n ikki yildan keyin O‘zbekistonda yalpi ishlab chiqarish trillion dollardan oshar ekan! Trillion! Bular osmondan olingan emas, aniq faktlar tahlili asosida yuzaga kelgan raqamlar! Ko‘z tegmasin!

Uzr, xorijlik mutaxassislarni ham xijolat etib qo‘yyapmiz? Yuqoridagi raqamlarni yozgandan keyin – hozirgina o‘qib qoldim: o‘sishimiz sur’ati ularning taxminidan juda yuqori – 8,7 foizdan ziyodroq ekan!

## 4

Dunyoning ulug‘ donishmandlari insoniyatni tutib turgan qadriyatlar haqida oxir-oqibat yagona xulosaga kelganlar. Insonlar, xalqlar, davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarga o‘zi ham aralashib, ne-ne g‘avg‘olarni boshidan o‘tkazgan Alisher Navoiy bir kun mana bunday satrlarni bitganlar:

*Olam ahli, bilingizkim,*
*ish emas dushmanlig‘,*
*Yor o‘ling bir-biringizgaki,*
*erur yorlig‘ ish.*

Bu bayt ma’nosini barcha anglab turgan bo‘lsa ham, mayli, sharhlab qo‘yay: “Dunyo odamlari, – deyapti shoir, – bilib qo‘ying, dushmanlik yaxshi ish emas. Bir-biringiz bilan do‘st bo‘ling, insonga faqat do‘stlik yarashadi”.

Shavkat Miromonovich, nazarimda hali Prezidentlik lavozimiga saylanmasdan oldin ham “dushmanlig‘ ish emas” ekanligini chuqur tushungan. Markaziy Osiyodagi qondosh-jondosh mamlakatlar o‘rtasida avj olgan noxushliklarni yuragi achishib kuzatgan. U kishi boshqargan Vazirlar Mahkamasining vazifasi xo‘jalik yuritish bo‘lgani uchun qo‘shnilar bilan munosabatimiz yomonligi tufayli rivojlanish imillayotganini ham teran his qilganlar. Eng muhimi, bu g‘alvalardan odamlar ham azoblanayotganini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan.

Albatta, shunday bo‘lgan! Shu sababdan Shavkat Miromonovich mamlakat boshqaruvi jilovini o‘z qo‘liga olgach bir zum tin olmay, avvalo, qo‘shnilar bilan qardoshlik-qarindoshlik rishtalarini tiklay boshladi. Bu ish qancha og‘ir-yengil kechgani faqat shu ezgu niyatli odamning o‘ziga ma’lum. Ammo natija qutlug‘ – qo‘shni mamlakatlarga yo‘limiz tushsa, O‘zbekistonning bir fuqarosi sifatida biz ham izzat-hurmat ko‘ryapmiz.

Surxondaryo viloyati uchta mamlakat bilan chegaradosh. Sho‘rolar davrida, masalan, Tojikiston bilan O‘zbekiston o‘rtasida chegara bor-yo‘qligi esimizga ham tushmasdi. Termiz yopiq shahar bo‘lgani uchun Dushanbega ham uchib borib, Surxonga o‘tib ketaverardik. Ba’zilar kattaroq bozor-o‘charini Dushanbega borib qilardi... Ammo mustaqillikdan keyin bir muddat o‘tgach hamma o‘ziga xon, o‘ziga bek bo‘lib oldi. Chegaradan o‘tish ushalmas bir orzuga aylandi!

Hozir tarixga aylangan bosh og‘riq bu kunlardan bir shingil voqeani kuni kecha hikoya qilib berishdi. Sariosiyoda yashaydigan bir keksa ayolning Regardagi singlisi vafot etganda, jigarining qabrini ziyorat etish uchun sakkiz yil urinib chegaradan o‘tolmagan ekan. Regar bilan Sariosiyoning orasi, ha boringki, yarim soatlik yo‘l!

Ikki mamlakat o‘rtasida do‘stlik-birodarlik munosabatlari o‘rnatilgach, qarindoshlar bu uzoq ayriliqdan so‘ng yig‘lab-siqtab yuz ko‘rishdi. Dushanbedan shuvullab mashinalar Surxondaryoga keladigan, uch-to‘rt sariosiyolik do‘stlar “Dushanbeni bir aylanib kelaylik”, deb yo‘lga chiqadigan bo‘ldi. Bir qadam yo‘l! Ertalab borib, kechqurun qaytib kelasan!

Tojikistonning tirikchiligini bizning mamlakatimizsiz tasavvur etish qiyin. Ularni boshqa hududlar, qo‘yingki, jahon bilan bog‘lovchi asosiy yo‘llar bizning yurtimiz orqali o‘tadi! Endi bunday imkoniyatlarga ega bo‘lgan tojik xalqining xurramligi nechog‘lik bo‘lganini tasavvur eting!

Shu sababdan Shavkat Miromonovich bu qo‘shnilarimiz yurtiga tashrif buyurganda, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon sahnadan turib, hazil aralash juda zo‘r lutf etgan edi: “Bular, – dedi u zalni to‘ldirib o‘tirgan tojik xalqi vakillariga ishora etib, – sizni mendan ham ortiq yaxshi ko‘radi!” Mana, hurmat! Mana, qardoshlik!

Biz Prezidentimizning bu tashrifidan so‘ng bir necha paytlar o‘tgach besh-olti yozuvchi jam bo‘lib, Dushanbega bordik. Maqsadimiz Boysunda tug‘ilgan do‘stimiz, Tojikiston xalq yozuvchisi Sattor Tursun vafoti munosabati bilan Dushanbedagi yaqinlariga hamdardlik bildirish edi. Yoz kunlari. Egnimizda jinsiyu mayka... Aeroportda esa bizni o‘n-o‘n besh chog‘lik – oppoq ko‘ylak, qora kostyum-shim kiygan tojik do‘stlarimiz kutib olishdi. Ertasi, kutilmaganda Tojikiston Yozuvchilar uyushmasida qardosh adabiyotlarimiz aloqalari haqida konferensiya o‘tkazishdi. Yana hamma o‘sha rasmiy kiyimda. Ko‘chada esa yoz... Birodarlar, bu tarzdagi majlisning nomini izzat-ikrom deydilar! O‘zbeklarga bo‘lgan izzat-ikrom!

Bizni Surxondaryoga olib ketgani yurtimizdan og‘aynilar kelishdi. Men, yo‘lda qanday ketsak bo‘ladi, avtomobillarni haydovchilar qaysi tezlikda haydasa ma’qul; ichki ishlar xodimlari to‘xtatsa qanday muomala qilish kerak deb so‘rab qoldim. Har holda mashinalarimiz raqamlari O‘zbekistonniki-da! Tojik do‘stlarning javobi meni hayron qoldirdi:

– Har qanday tezlikda haydayveringlar! Hech kim to‘xtatmaydi! Prezidentimiz “O‘zbeklar mening mehmonim – ularga hech kim teginmasin”, deb yuqori minbardan aytgan!

Qalay?

Bu gaplar o‘zbek xalqiga bo‘lgan hurmatning eng cho‘qqisi edi.

Ikki xalq o‘rtasidagi bu izzat-hurmatning qaytishi, yanada yuqori darajaga ko‘tarilishi Shavkat Miromonovichning jonkuyarligi, samimiy – diplomatik mahorati va insoniy fazilatlari bilan bog‘liq edi.

Yaqinda atoqli o‘zbek shoiri Shavkat Rahmon tavalludining 75 yilligini nishonlash uchun O‘sh shahriga bir guruh ijodkorlar bilan yo‘lga chiqdik. Ilgari ham O‘sh safarida bo‘lganman. Chegara mashmashalarini o‘ylab, ko‘nglim xijil bo‘lib borayotgandim. Ammo bezovtalikka o‘rin yo‘q ekan. O‘zbekiston fuqaroligiga oid hujjatlarimizni ko‘rsatib, bemalol o‘tib ketaverdik. Qirg‘izlar ham yurtimizga shunday kirib kelyapti.

Bu bemalollikni yaratgan, ikki xalq o‘rtasida ishonch va haqiqiy do‘stlikni qayta barpo etgan insonlarni alqadik. Axir bu ikki qo‘shni xalq o‘rtasida nimalar o‘tmagan edi?!



Shavkat Rahmonning yubileyiga bag‘ishlangan ijodiy kecha nihoyatda baland saviyada o‘tdi. Majlisda Qirg‘iziston hukumatining bosh kotibi, nufuzli TURKSOY tashkilotining rahbari, O‘sh shahri hokimi qatnashdi. Shavkat o‘qigan maktabga va shaharning katta ko‘chalaridan biriga uning nomi berildi.

Albatta, bu katta shoir bunday ehtiromga arziydi. Shubha yo‘q. Ammo baribir bu samimiy ehtiromning asosi Shavkat Miromonovich ekanligini ham har daqiqada his qilib turdik.

Kamina Qozog‘iston safarida bo‘lganimda, do‘stlarning xuddi shunday mehriga duch keldim. Bir emas, bir necha mukofotlar bilan taqdirlandim. Hatto xorij bir mamlakatning adabiy mukofoti ham qozoq do‘stlarimizning tavsiyasi bilan menga topshirildi. Agar munosabatlarimiz avvaldagiday g‘arazli kechganda, shunday hol ro‘y berarmidi?

Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasidagi bu ittifoqchilikning, bag‘rikenglikning va mehr-muhabbatning bosh me’mori Shavkat Miromonovich ekanligini hozir barcha ko‘rib turibdi. Xorijliklar ham bu mintaqani rivojlanish sari boshlab boradigan kuch sifatida O‘zbekistonga qaramoqda.

Men, asosan, azaliy yaqin qo‘shnilarimiz bilan munosabatlar haqida yozdim. Har kun o‘zgarayotgan bu chigal dunyodagi boshqa mamlakatlar bilan munosabatlarimiz ham aytarga arzigulik ekanligini ta’kidlab o‘tmoqchiman. Masalan, o‘zicha yashashni xush ko‘radigan Afg‘oniston bilan ham yetarli darajada aloqalar o‘rnatganmiz. Axir bu mamlakat orqali okeanlarga chiqish orzuimiz bor!.. Hozir shundoq Amudaryodagi ko‘prikdan o‘tib, o‘zbek tuprog‘iga qadam qo‘yilgan joyda O‘zbekiston – Afg‘oniston chegaraoldi savdo zonasi bunyod etilgan. Qator-qator do‘konlar, mehmonxonalar, oshxonalar... Savdo-sotiq avjida. Zona to‘lib-toshib ketyapti. Prezidentimiz bu zonaga yana qo‘shimcha yerlar ajratish haqida topshiriq berdi.

Albatta, bu yon qo‘shnilarimiz ham O‘zbekiston rahbari sha’niga iliq so‘zlar aytganlari-aytgan...

Dunyoda haqiqiy obro‘ga ega bo‘lish oson ish emas. Bu rutbaga iste’dodli, o‘zini ayamay mehnat qiladigan, farosatli, boshqalarning ham manfaatini hurmat etadigan; o‘z mamlakatini ham jonidan yaxshi ko‘radigan siyosiy arboblargina sazovor bo‘ladi.

Mana shunday obro‘ga ega bo‘lganlardan biri esa bizning Prezidentimiz! Ha, o‘zimizning Prezident!

## 5

Mamlakatimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning oqimi juda katta. Ularning hammasi “men o‘zbekman!”, deganlarni quvontiradi. Masalan, keyingi oylardagina ro‘y bergan qator yangiliklar hali-hanuz meni hayratga solib kelyapti.

Agar ikki-uch yil avval barchamizning jonimizga tekkan shu paxtadan birov sakson-to‘qson sentnerdan hosil olinadi desa, kamina “qo‘ysang-chi”, deb kulishi aniq edi. Ammo xuddi shunday bo‘ldi! Yana qayerda deng? Sirdaryo viloyatida! Bu viloyatda talabaligimda paxta terganman. O‘rtacha yigirma sentnerdan hosil olinsa, do‘ppi osmonga otilardi! Endi esa!.. Odam ishonmaydi. Hatto dehqonlarning o‘zlari ham chanoqlari boshdan oyoq ochilgan paxtazorga qarab, hayrat bilan gapirishganiga guvoh bo‘lganman. Xorijdan urug‘lik keltirildimi? Keltirildi. Ammo o‘zimiz ham qarab turganimiz yo‘q. “Porloq” navli g‘o‘zamiz xorijiy navlardan ortiq bo‘lsa ortig‘-u, kam emas!

Bir jumla bilan aytilganda, paxtachilikda inqilob ro‘y berdi!

Yana hayratlanarli bir voqea.

Olmaliqda 3-mis boyitish fabrikasi ishga tushirildi. Bu sira fabrikalar qurilib, ishga tushirilish jarayoni butun jahonda o‘n yilga cho‘zilar ekan. Bizda esa to‘rt yilda (ha, to‘rt yilda!) amalga oshirildi. Bu muddatga, hatto o‘zimizning eng katta mutaxassislar ham, amerikalik hamkor ham ishonqirashmagan ekan. Mana shu amerikalik endi butun jahonni O‘zbekistonning bu tezkor tajribasidan o‘rganishga chaqirdi.

Yana bir hayrat. Faqat men emas, hali o‘zbeklarning necha-necha avlodi g‘ururlanadigan mo‘jizaning – O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining bunyod etilishi. Bu markaz ajib did bilan qurilgan koshona. Devorlarida qo‘l bilan ishlangan naqshlar, butun dunyodan yig‘ib kelingan – ilgari o‘zimizdan olib chiqib ketilgan noyob eksponatlar, Usmon Qur’oni, qadimiy qo‘lyozmalar... Ularni namoyish etish uchun eng zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanishi...

Shavkat Miromonovich bu markazning qurilishi haqida bir qiziq tushuntirish berdi: “Bu markazning qurilishida shoshmadik. Sakkiz yilda oxiriga yetkazdik...”

Bu izoh menga juda yoqdi. Chunki navbatdagi bir imorat emas, san’at asari qurilayotgan edi! San’at asari yaratilishiga xuddi shunday sabr-toqat bilan yondashiladi! Prezidentimiz mana shu noziklikni anglagan.

Xullas, asrlarga tatigulik inshoot dunyoga kelgan.

Men internetda bu mo‘jizani tomosha qilish uchun borayotgan ikki kishining suhbatini eshitdim.

– Sen, – dedi ularning biri imorat bor bo‘yicha ko‘ringach. – “Tojmahal”ni ham ko‘rgansan. Qaysi zo‘r?..

– Bu zo‘r-ov, – dedi hamrohi binoga bir qur nazar tashlab. So‘ng ishonch bilan bir qarorga keldi: – Bu zo‘r!

Tamom vassalom! Bu zo‘r!

Bunday yaratuvchanliklar haqida yozaversam, ado bo‘lmaydi shekilli.

Bugun internetni ochdim. Mana, tilga olingan yangiliklar: Toshkent viloyati markazidan Bekobodni aylanilib Yangiyerga boradigan 111 kilometrlik yangi temir yo‘l qurilishi, Samarqandga boradigan yangi tezkor yo‘l, tuproq ishlari ketayotgan Toshkentdagi yangi aeroportdagi asosiy ishlarning boshlanishi...

Nazarimda hayratlarimning endi cheki bo‘lmaydi.

### So‘ngso‘z o‘rnida

Sport ishqiboziman. Ishqibozligimni biladigan Xayrulla degan jurnalist ukam – to‘qsoninchi yillarning oxirida bo‘lsa kerak – futbol gazetalaridan biriga intervyu olib qoldi.

– Mana, Yaponiya futbol jamoasi Jahon chempionati finaliga yo‘llanma oldi, – dedi u. – Biz qachon jahon chempionatiga chiqamiz?

– Endi, – dedim men atrofimdagi voqeliklarni bir zum ko‘z oldimga keltirib, – mamlakatimizning Yaponiyaga mengzab rivojlanishini kutamiz-da, ukam.

Orzumizga erishdik. Futbolchilarimiz mundial yo‘llanmasini qo‘lga kiritdi. Demak... Yaponiyaga mengzab ketyapmizmi? Shunga juda o‘xshaydi. Har holda rivojlanishimiz sur’ati “Kunchiqar yurt”nikidan anchagina baland.

Ishonchim komil, shunday bo‘ladi!

Chunki Vatanimizning buguni va ertasini yaratishga vatanparvar, xalqparvar, ishbilarmon va adolatli inson bel bog‘lagan!

**Madrid shahrida buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur tavalludining 690-yilligi munosabati bilan tashkil qilingan konferensiyada Osiyo, Yevropa hamda Lotin Amerikasi davlatlaridan 70 dan ziyod olimlar, tadqiqotchi va diplomatlar qatnashdi.**

# YANGI O'ZBEKISTON XALQARO HAMKORLIK VA ISHONCHLI MULOQOT MAYDONIGA AYLANMOQDA

← 1

Bu hamkorlikning aniq natijalari fuqarolarning kundalik hayotida ham yaqqol sezilmoqda. Xususan, o'zaro ishonch asosida yo'lga qo'yilgan hamkorlik natijasida 1 400 kilometrdan ortiq temir yo'l va 1 700 kilometr avtomobil yo'llari modernizatsiya qilindi. 4 ming kilometr suv ta'minoti tarmoqlarida ishlar yakunlanib, 750 ga yaqin



ta'lim muassasalari yangilandi. Ushbu raqamlar ortida sifatli ta'lim, toza ichimlik suvi va zamonaviy infratuzilma imkoniyatiga ega bo'lgan minglab oilalar turibdi. Zotan, iqtisodiy o'sish faqat odamlarning hayotini yaxshilagandagina haqiqiy ma'no kasb etadi.

Yig'ilish doirasida umumiy qiymati 12,5 milliard dollarlik O'zbekiston va Osiyo taraqqiyot banki o'rtasida 2030-yilgacha mo'ljallangan yangi sheriklik dasturi imzolanganini alohida aytish joiz. Ushbu hujjat infratuzilma, davlat boshqaruvi islohotlari, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari va inson kapitalini rivojlantirishni qamrab olgan "Yo'l xaritasi"dir.

E'tiborga molik jihati, Prezidentimiz forumda so'zlagan nutqida ushbu nufuzli bank bilan hamkorlikning to'rtta strategik ustuvor yo'nalishini belgilab berdi. Ilgari surilgan muhim tashabbuslar esa nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining uzoq muddatli o'sishi uchun asos yaratib, o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari tashabbuslarining hayotga izchil tatbiq etilishi O'zbekistonning 2030-yilga borib iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini texnologik o'sish modeliga o'tkazgan holda, daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirishiga imkon yaratadi. Mamlakatimiz bugun aynan shu ezgu maqsad yo'lida sobitqadam bo'lib bormoqda.

**Qobul TURSUNOV,**
**Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi o'rinbosari.**

# MARDLIK VA MATONAT TIMSOLI

*Inson xotira bilan tirik, qadr bilan ulug'dir. Prezidentimiz tomonidan keyingi yillarda el-yurtimiz taqdiriga daxldor tarixiy adolatni tiklash, ajdodlarimizning ezgu ishlari, jasoratini ulug'lash va abadiylashtirish, inson manfaatlarini ta'minlashga yuksak e'tibor qaratilmoqda. Buni barchamiz ko'rib, guvohi bo'lib turibmiz.*

## Munosabat

Ayniqsa, mamlakatimizda tarixiy xotirani asrash, urush hamda mehnat fronti qatnashchilari, millat ozodligi yo'lida kurashgan jasur insonlar xotirasini abadiylashtirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar xalqimizning ma'naviy hayotida mustahkam o'rin egallamoqda. Bu borada poytaxtimizda bunyod etilgan G'alaba bog'i hamda uning tarkibidagi "Matonat madhiyasi" va "Millat fidoyilari" yodgorlik komplekslari alohida o'rin tutadi. Mazkur majmualar nafaqat tarixiy yodgorlik, balki xalqimizning matonati, jasorati va vatanparvarlik ruhini o'zida mujassamlagan muqaddas ma'naviy maskan sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugun ushbu qutlug' qadamjolarga kelgan har bir inson, har bir yosh o'tmish saboqlarini teran his etadi, yurt tinchligi va mustaqillikning naqadar ulug' ne'mat ekanini anglaydi. Ayniqsa, yosh avlod uchun bu maskanlar haqiqiy hayot maktabi vazifasini o'tab, ularni milliy qadriyatlarga hurmat, Vatan taqdiriga daxldorlik, ajdodlar merosiga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilayotir. Shu ma'noda, G'alaba bog'i va undagi yodgorlik majmualari xalq xotirasi hamda milliy g'urur timsoli sifatida tobora tabarruk va qadrli ziyoratgohga aylanib bormoqda.

Yangi O'zbekistonda keksa avlod vakillarini har tomonlama qo'llab-



quvvatlash, ularning sog'lom va mazmunli hayot kechirishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga qaratilgan ishlar izchil davom ettirilyapti. Xususan, joriy yilda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlariga 30 million so'm miqdorida pul mukofotlari berildi. Qolaversa, urush qatnashchilari va nogironlari, mehnat faxriylarining salomatligini muhofaza qilish, ularni sanatoriylar, dam olish maskanlariga bepul va imtiyozli asosda yuborish bo'yicha samarali tizim faoliyat ko'rsatayotir.

Davlatimiz rahbari shu yilning 8-may kuni Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylarini ziyorat qilib, bayram bilan tabriklagani yuksak e'tiborning yana bir amaliy namunasi bo'ldi, desak, mubolag'a emas.

Prezidentimiz Qurolli Kuchlar Bosh harbiy klinik gospitalida Akmal Akramov, Vera Juravskaya, Hasanboy Xalmatov va Vladimir Alekseykov bilan dildan suhbatlashdi. Nuroniylarning hol-ahvoli hamda salomatligi bilan qiziqdi. Ularning mashaqqatli hayot yo'li va ko'rsatgan jasoratlarini alohida e'tirof etdi.

Yurtboshimizning faxriylar bilan samimiy muloqotida e'tibor berish kerak bo'lgan muhim jihat shundaki, nuroniylar hayoti va jasorati xalqimiz ma'naviyatining tirik timsoli sifatida qadrlanmoqda. Chunki Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari bugungi osuda hayotimiz uchun og'ir va sinovli davrlarni boshidan kechirgan.

Shu bois ular bilan bo'layotgan har bir uchrashuv, aytilgan har bir iliq so'z va ko'rsatilayotgan e'tibor chuqur ma'no kasb etadi. Ya'ni bugungi yorug' kunlar, bebaho tinchlik va osoyishtalik o'z-o'zidan kelmaganini, farovon hayot ortida qanchadan-qancha insonlarning taqdiri, jasorati va mashaqqatli mehnati turganini anglatadi. Bu esa Yangi O'zbekistonda "inson qadri" degan hayotiy tamoyil tobora chuqur qaror topayotganini yana bir bor ko'rsatmoqda. Bunday e'tibor va e'zoz keksa avlod vakillariga ma'naviy kuch bag'ishlasa, yoshlar uchun Vatanga sadoqat, burch va matonat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

G'olib hamda muzaffar ota-bobolarimizning Vatan ozodligi, yurt tinchligi va xalq osoyishtaligini asrash yo'lida ko'rsatgan beqiyos jasorati hamda fidokorona xizmatlarini chuqur o'rganish, ularning ibratli hayot yo'li va ma'naviy merosini keng targ'ib etish davlatimiz va jamiyatimiz oldida turgan eng muhim ma'naviy vazifalardan biridir. Zero, shonli o'tmishimiz va ozodlik yo'lida qurbon bo'lgan ajdodlarimiz xotirasi qanchalik ulug'lansa, xalqimizda ham milliy g'urur va fidoyilik tuyg'ulari shunchalik mustahkam bo'ladi.

**Maryam NIYAZOVA,**
**Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi a'zosi.**

# XOTIRAGA SADOQAT – MILLAT QUDRATI

← 1

Yurtimizga evakuatsiya qilingan millionlab insonlar, jumladan, yuz minglab bolalar o'zbek xonadonlarida mehr hamda g'amxo'rlik topdi. Temirchi Shoahmad Shomahmudov va uning rafiqasi Bahri Akramovaning turli millat vakillaridan bo'lgan 14 nafar yetim bolani tarbiyaga olgani xalqimiz bag'rikengligining yorqin timsoli sifatida tarixga muhrlangan.

Kattaqo'rg'onlik Hamid Samadovning urushdan og'ir jarohat bilan qaytib, 13 nafar qarovsiz bolani o'z bag'riga olishi ham xalqimizga xos yuksak insoniylik namunasidir. Ocharchilik va muhtojlik hukm surgan yillarda ham o'zgalar taqdiriga befarq bo'lmagan ana shunday insonlar tufayli millatimiz ma'naviy qudrati butun dunyoga namoyon bo'ldi.

Bugun Yangi O'zbekistonda ana shu tarixiy xotiraga yuksak ehtirom bilan qaralmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida urush va mehnat faxriylarini e'zozlash, ularning holidan xabar olish, munosib turmush sharoitini yaratish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Joriy yil 9-may – Xotira va Qadrlash kuniga bag'ishlab, "Burch, jasorat, matonat!" shiori ostida tashkil etilgan tadbirlar yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, milliy g'urur va tarixga hurmat tuyg'ularini mustahkamlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Prezidentimiz 8-may kuni G'alaba bog'idagi xotira tadbirlarida qatnashib, "Matonat madhiyasi" yodgorligi poyiga gulchambar qo'ydi. Qurolli Kuchlar Bosh harbiy klinik gospitalida urush va mehnat fronti faxriylari bilan samimiy



muloqot qildi. Yurtboshimizning bu insonlarga qarata "Sizlar tarixning jonli guvohi, matonat timsolisizlar", degan fikrlarida katta ma'no mujassam. Chunki tinchlik qadrini eng yaxshi anglaydigan insonlar urush azobini ko'rgan avloddir.

"Millat fidoyilari" xiyobonida mustaqillik yillarida Vatan himoyasi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquq-tartibot idoralari xodimlari xotirasiga ko'rsatilgan ehtirom barchamiz uchun ibrat. Vatan himoyasi har bir avlodning muqaddas burchi ekani bugun har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etayotir.

Hozirgi tahlikali va murakkab dunyoda milliy birlik, hamjihatlik hamda tinchlikni asrash eng katta vazifaga aylandi. Atrofimizda kechayotgan turli mojarolar, qirg'in va ziddiyatlar xalqimiz uchun tinchlikning naqadar bebaho ne'mat ekanini yana bir bor eslatmoqda.

Tarixni unutgan millatning kelajagi bo'lmaydi. Xotiraga sadoqat esa millatni birlashtiradi, uning ma'naviy ustunlarini mustahkamlaydi. Shu ma'noda, Xotira va Qadrlash kuni nafaqat o'tmishga nazar, balki kelajak oldidagi mas'uliyatni anglash kuni hamdir.

Farzandlarimiz yurt tinchligi, Vatan ozodligi qanday mashaqqatlar evaziga saqlab qolinganini chuqur anglab voyaga yetsa, mamlakatimizda tinchlik va barqarorlik abadiy bo'ladi.

**Hilola YUSUPOVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

## Tibbiyot

# SAMARADORLIKKA YO'NALTIRILGAN YANGI MODEL

*Yaqinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida o'tkazilgan sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan taqdimot sohada tub o'zgarishlarni amalga oshirishga xizmat qiladigan, aniq maqsad va mexanizmlarga asoslangan strategik dastur sifatida alohida ahamiyat kasb etdi.*



Unda bajarilgan ishlar chuqur tahlil qilinib, mavjud muammolar ochiq ko'rsatildi va ularni bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilab berildi. Mazkur yondashuv sog'liqni saqlash tizimini qisqa muddatli emas, balki uzoq istiqbolga mo'ljallangan holda qayta shakllantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

So'nggi yillarda tibbiyot sohasida xususiy sektor ulushining sezilarli darajada oshgani kuzatilmoqda. 2016-yilda 3,2 mingta bo'lgan xususiy klinika soni 2026-yilga kelib 8,7 mingtaga yetishi kutilayotgani, xizmat turlari va koyka fondining kengaygani bozor mexanizmlari shakllanayotganini ko'rsatadi. Biroq miqdoriy o'sishning o'zi yetarli emas. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, samarali monitoring va aniq standartlarsiz xizmatlar sifati barqaror oshmaydi. Shu bois bugungi kunda asosiy vazifa – tibbiy xizmatlar sifati, xavfsizligi va hisobdorligini yangi bosqichga ko'tarishdan iborat.

Shu maqsadda tibbiyot tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash va akkreditatsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu boradagi barcha vazifalarning Tibbiyot tashkilotlarini litsenziyalash va akkreditatsiyalash markazi orqali amalga oshirilishi taklif etilayotgani sohada markazlashgan, shaffof va yagona yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqsadga erishishda litsenziyalash tizimini tubdan takomillashtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki litsenziyalash – bu faqat ruxsat berish jarayoni emas, balki sohaga kirish uchun asosiy "sifat filtri"dir. Amalda esa litsenziyalash vakolatlarining turli idoralar o'rtasida tarqoq holda bo'lishi, talablarning bir xil qo'llanmasligi va ortiqcha byurokratik to'siqlar tizim samaradorligini pasaytirib kelgan. Bunday sharoitda qaror qabul qilish jarayonlarida subyektivlik ehtimoli ortib, shaffoflik yetarli darajada ta'minlanmaydi.

2026-yil 1-iyuldan boshlab litsenziyalash tartiblarini kuchaytirish, bemor xavfsizligi va tibbiy xizmat sifatiga doir talablarni qayta ko'rib chiqish rejalashtirilmoqda. Xususan, amaldagi 48 turdagi litsenziya talablarining 14 tasini takomillashtirish orqali tizimni yanada aniq va samarali qilish ko'zda tutilayotir. Bu o'zgarishlar formal talablarni emas, balki real sifat ko'rsatkichlarini ta'minlashga qaratilgani bilan ahamiyatli.

Ayni paytda tibbiyot tashkilotlari faoliyati ustidan nazoratni zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil qilish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Elektron axborot tizimlari orqali litsenziya talab va shartlariga rioya etilishini masofaviy baholash mexanizmlarini joriy qilish orqali nazoratning yangi bosqichiga o'tiladi. Bu esa inson omili ishtirokini kamaytirish, korrupsiya xavflarini bartaraf etish va nazorat jarayonini shaffof qilish imkonini beradi.

Belgilangan vazifalar sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiyalash bilan cheklanmay, uning mazmun-mohiyatini tubdan yangilashga qaratilgan. Endi asosiy e'tibor infratuzilmani kengaytirishga emas, balki natijaga yo'naltirilgan samaradorlikka qaratiladi. Mazkur jarayonda inson, uning hayoti, salomatligi va sifatli tibbiy xizmat olish huquqi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar qat'iy talablar, shaffof nazorat, erkin raqobat va kuchli iqtisodiy rag'bat uyg'unligiga asoslangan yaxlit tizimni shakllantiradi. Ana shu omillar bir-biri bilan uyg'un ishlagan taqdirda sog'liqni saqlash tizimi sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tariladi.

**Sevara UBAYDULLAYEVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

## "Yashil makon"

# Raqamlashtirish – aniqlik va yuqori natija demak

*Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan boshlangan "Yashil makon" umummilliy loyihasi yurtimiz bo'yicha yoshu qarini ko'chatchilik bilan shug'ullanish, nihol o'tqazish, bog'u rog'lar yaratishga undamoqda.*

Shaharlaru qishloqlarda yashillik ko'lami oshayotir, dala chetlariyu ariq-zovurlarning yoqasi ham e'tibordan chetda qolayotgani yo'q. Maqsad – 2030-yilgacha yurtimiz hududining 30 foizini yashillikka burkash. Buning uchun ekilgan nihollar qurib qolmasligi, xayrli ishdagi raqamlarga soxtalik aralashmasligi lozim.

– O'tgan yilning 26-sentabrida Prezidentimiz rahbarligida o'tkazilgan yig'ilishda kuzda 125 mln., ko'klamda esa 75 mln. tup nihol ekish bo'yicha topshiriq berilgan edi, – deydi O'rmon xo'jaligi agentligi boshqarma boshlig'i Hakimjon Abdullayev. – Albatta, bu raqamlar ortig'i bilan uddalandi va respublikamizning yashillik darajasi 14,3 foizga yetkazildi. Ushbu xayrli ishda o'rmon xo'jaliklari, turli tashkilotlar va idoralar qatori 10 mingga yaqin mahallalarda yashovchi aholi faollik ko'rsatdi. Har bir ekilgan ko'chat Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasining "yashilmakon.eko" elektron platformasida belgilangan tartibda hisobga olindi. Shuningdek, poytaxtimiz hududidagi jami 858 ming tup daraxt pasportlashtirildi, ularning ma'lumotlari "yashil makon" va "green.tashkent.uz" elektron platformalariga joylashtirildi.

Joriy yilda ko'chat ekish bo'yicha nazorat tadbirlariga O'rmon xo'jaligi agentligi tizimidagi 544 nafar xodim jalb qilinib, ular 484 ta planshet, 11 ta uchuvchisiz uchish qurilmasi bilan ta'minlandi. "Yashil belbog'" va "yashil qoplama"lar barpo etish bo'yicha respublikadagi 31 ta shahar atrofida beqiyos ishlar amalga oshirildi. Nukus, Buxoro va Urganch shaharlari chegarasida 40 km., shuningdek, Termiz shahri va Termiz tumanida 47 gektar maydonda afg'on shamoli, uning qum-chang bo'ronlariga qarshi "yashil belbog'"lar barpo etildi.

– Orol dengizi qurishining salbiy oqibatlarini yumshatish masalasi ham diqqat-e'tiborimizda, – deya so'zini davom ettiradi suhbatdoshimiz. – Ana shu maqsadda 253 ming gektar maydonda, jumladan, 115 ming gektar Orol dengizining qurigan tubi va 134,6 ming gektar Orolbo'yi hududlarida "yashil qoplamalar" – himoya o'rmonzorlari barpo etilib, ularning umumiy maydoni 2 mln. gektarga yetkazildi.

Cho'llanishga qarshi kurashish borasida suvsizlikka chidamli, sho'r yerlarda o'sishga moslashgan galofit o'simliklarini ilmiy usulda yetishtirish maqsadida Xitoy cho'llanishga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro markazi, Shinjon ekologiya va geografiya instituti olimlari bilan yaqin hamkorlik o'rnatildi. Natijada Xitoydan 35 turdagi 1,3 tonna galofit o'simliklari urug'larini olib kelish imkoni tug'ildi. Joriy yilda Arnasoy, Nukus, Qorako'l, Muborak hamda Karmana tumanlaridagi jami 49 gektar maydonda galofit bog'lari tashkil etildi. Ayni chog'da xitoylik olimlar bilan birgalikda Qorao'zak, Shofirkon, Konimex o'rmon xo'jaliklarida uchta cho'l o'simliklarining urug'chilik va ko'chatchilik xo'jaligi hamda 10 ta galofit va kserofit bog'ini tashkil etishga kirishildi.

**Abdunabi ALIQULOV**
**("Xalq so'zi").**

# TOMORQA – XAZINA

*Ishtixon tumanidagi Beshariq mahallasida bugungi kunda 5 mingga yaqin aholi istiqomat qiladi. Ularning asosiy qismi ko'chatchilik bilan shug'ullanib, tomorqa yerlaridan samarali foydalanish orqali daromad topayotir.*

## Omilkorlik

Ushbu mahallada yashovchi O'tkir Allamurodov necha yillardan buyon hovlisidagi 5 sotixlik issiqxonada iqlim sharoitiga mos, serhosil pomidor ko'chatlarini yetishtirib kelmoqda.

Shuningdek, tomorqa egasi issiqxona bilan bir qatorda hovlisida parvarish qilinayotgan 100 tup tokdan ham mo'l hosil yetishtirib, daromad olmoqda. Bu esa kichik yer maydonidan ham yuqori samaradorlikka erishish mumkinligini ko'rsatadi.

– Issiqxonamizda may oyining oxirigacha ko'chat yetishtirib sotamiz. Undan keyin shu yerning o'zida va tomorqamizning qolgan yerlarida kartoshka, pomidor va bodring yetishtiramiz, – deydi O'tkir Allamurodov. – Qolaversa, uzumdan ham har yili 4 tonnadan ortiq hosil olamiz. Shuningdek, chorva bilan shug'ullanamiz. Va shu orqali yaxshigina daromad topyapmiz.

Alisher va Oybek Allamurodovlar o'z issiqxonalarida yetishtirilayotgan pomidor va bulg'or qalampiri ko'chatlarini sotish orqali yiliga 100 million so'mgacha daromad qilishmoqda. Mahallalarda "Bir mahalla – bir mahsulot" tamoyili asosida olib borilayotgan bu kabi ishlar oziq-ovqat yetishtirish hajmini oshirish, aholi turmush darajasini yaxshilash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

**Abdulaziz YO'LDOSHEV**
**("Xalq so'zi").**

# TA'LIM SIFATI VA QAMROVINI OSHIRISH

## inson kapitalini rivojlantirishning strategik asosi

← 1

Xususan, 2021 – 2024-yillar davomida xorijiy universitetlar filiallari soni 25 tadan oshdi, kredit-modul tizimi keng joriy etildi va ta'lim jarayonida raqamli platformalardan foydalanish hajmi keskin oshdi. O'z navbatida, oliy ta'lim qamrovi va malakali kadrlar ulushi ham izchil o'sib, mos ravishda 9 foizdan 45 foizga hamda 32 foizdan 55 foizga ortgan. Bu o'sish OTM bitiruvchilari bandligi darajasining 55 foizdan 80 foizgacha ko'tarilishiga ham bevosita ta'sir qilgan. Shuningdek, mehnat unumdorligi indeksi va ta'limga ajratiladigan xarajatlarning YAIMga nisbati ham izchil oshishi islohotlarning nafaqat ta'lim qamrovini, balki ta'lim sifati va iqtisodiy samaradorligini yuksaltirishga xizmat qilayotganini ko'rsatadi.

Shu o'rinda e'tirof etish joizki, 2026 – 2030-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekistonda ta'lim sohasida olib borilayotgan izchil islohotlar inson kapitalining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga turtki berishini ko'rsatmoqda. Xususan, maktabgacha ta'lim qamrovining 2026-yildagi 82 foizdan 2030-yilga kelib 90 foizga yetishi inson kapitalining dastlabki poydevorini mustahkamlab, keyingi ta'lim bosqichlarida bilimlarni samarali



o'zlashtirish imkonini oshiradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, maktabgacha ta'limga jalb qilingan bolalarning kelgusidagi akademik natijalari va mehnat bozoridagi moslashuvchanligi o'rtacha 20 – 25 foizga yuqori bo'ladi, bu esa uzoq muddatda iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi.

Oliy ta'lim qamrovining 2026 – 2030-yillar davomida 47 foizdan 60 foizgacha oshishi yuqori malakali inson kapitali ulushining sezilarli kengayishini anglatadi. Prognozlarga qaraganda, 2030-yilga borib 25 – 34 yoshdagi malakali kadrlar ulushi 70 foizga yetadi. Bu esa mehnat bozorida intellektual mehnat ulushining oshishiga va yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi tarmoqlarning rivojlanishiga zamin yaratadi. OTM bitiruvchilarining bandlik darajasi 90 foizga yetishi ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi integratsiyaning kuchayganini ko'rsatib, dual ta'lim, amaliyotga yo'naltirilgan o'quv dasturlari va xususiy sektor ishtirokining kengayishi bilan izohlanadi. Ta'limga ajratiladigan xarajatlarning YAIMga nisbatan 7,5 foizgacha oshishi va mehnat unumdorligi indeksining 2030-yilga kelib 185 birlikka yetishi ta'lim islohotlarining makroiqtisodiy samaradorligini yaqqol namoyon etadi.

Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramay, inson kapitalini shakllantirish jarayonida qator muammolar mavjudligi bor gap. Jumladan, maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim qamrovi oshgani bilan, sifat ko'rsatkichlari hali rivojlangan davlatlar darajasiga yetmagan. Qolaversa, ta'lim sifati bo'yicha regional tafovutlar saqlanib qolmoqda: katta shaharlar va rivojlangan hududlarda ta'lim sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lsa, qishloq va chekka hududlarda o'qituvchilar malakasi va o'quv resurslari cheklangan. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonida maktab va oliy ta'lim muassasalarining texnologik infratuzilmasi ham barcha hududda teng rivojlanmagan. Bu esa inson kapitalini rivojlantirishda ayrim to'sqinliklarni yuzaga keltiradi. Shuningdek, oliy va kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarining mehnat bozoriga tayyorligi va malaka darajasi ko'pincha talabga javob bermaydi. Kredit-modul tizimi va amaliy ko'nikmalarga yo'naltirilgan dasturlar joriy etilgan bo'lsa-da, ish beruvchilar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik yetarli darajada deb bo'lmaydi.

> *2021 – 2024-yillar davomida xorijiy universitetlar filiallari soni 25 tadan oshdi, kredit-modul tizimi keng joriy etildi va ta'lim jarayonida raqamli platformalardan foydalanish hajmi keskin oshdi. O'z navbatida, oliy ta'lim qamrovi va malakali kadrlar ulushi ham izchil o'sib, mos ravishda 9 foizdan 45 foizga hamda 32 foizdan 55 foizga ortgan. Bu o'sish OTM bitiruvchilari bandligi darajasining 55 foizdan 80 foizgacha ko'tarilishiga ham bevosita ta'sir qilgan.*

Bu masalalarni hal qilish uchun ta'lim sifati, o'qituvchilar malakasi, infratuzilma va ish beruvchilar bilan integratsiyani kuchaytiruvchi kompleks yondashuvlar talab etiladi. Masalan, dual ta'lim tizimini kengaytirish, amaliyot va ilmiy tadqiqot faoliyatini oshirish, shuningdek, "STEM" va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish orqali bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuvchanligi yaxshilanadi. Shu bilan birga, ta'limga ajratilayotgan mablag'larni samarali va shaffof boshqarish, infratuzilmani modernizatsiya qilish inson kapitalining sifatini oshirishga yordam beradi.

Ushbu chora-tadbirlar inson kapitalining barcha tarkibiy elementlarini – bilim, ko'nikma va mehnat bozorida moslashuvchanlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bular nafaqat ta'lim sifati va qamrovini oshiradi, balki iqtisodiy samaradorlik, innovatsion salohiyat hamda global raqobatbardoshlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Pirovardida O'zbekiston iqtisodiy samaradorlikni oshirish, innovatsion salohiyatni kuchaytirish yo'lida kuchli strategik poydevor yaratadi.

**Qahramon SOBIROV,**
**Toshkent gumanitar fanlar universiteti rektori, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).**

**Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 2026-yilning yanvar – mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 75,1 trln. so'mni tashkil etgan.**

# «O'ZBEK XALQIGA MEHRU MUHABBATIM BO'LAKCHA...»

*Dunyoda tili, urf-odatlari, madaniyati, hatto tashqi ko'rinishi jihatidan bir-biriga o'xshab ketadigan millat va elatlar ko'p. O'zbek va ozarbayjon xalqlarini ana shunday xalqlar qatoriga bemalol qo'sha olamiz. Yaqinda Vatanimizga tashrif buyurgan Ozarbayjon xalq yozuvchisi, Ozarbayjon yozuvchilar uyushmasi raisi, bugungi turkiy adabiyotning yetuk vakillaridan biri, O'zbekistonning "Do'stlik" ordeni sohibi ANAR muallim bilan suhbatimiz ham ikki xalq o'rtasidagi aloqalar davomiyligi xususida kechdi.*

## Bizning suhbat



– Bu ikki buyuk xalqni asrlar, ming yillar mobaynida bir-biriga bog'lab kelgan o'xshash jihatlar ko'p, – deydi Anar muallim suhbat boshida. – Turmush tarzimizda, an'ana va urf-odatlarimizda, xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotda ko'plab umumiy jihatlarni uchratish mumkin. Xalqlarimizning mushtarak yodgorligi hisoblanmish "Avesto" kitobi, shuningdek, xalq og'zaki ijodining o'lmas durdonalari sanalgan "Go'ro'g'li", "Oshiq G'arib", "Dada Qo'rqut" dostonlari ana shu azaliy qardoshlik va birodarlikning yorqin isboti. O'zbek maqomlari va betakror ozarbayjon mug'omlari orasidagi hamohanglik har ikki xalq o'rtasidagi yaqinlikni o'zida ifodalaydi.

Azaliy aloqalar haqida gap ketganida mumtoz adabiyotimiz xususida to'xtalmay iloj yo'q. Nazm mulkining sultoni Alisher Navoiy buyuk Sharq mutafakkirlaridan biri Nizomiy Ganjaviyni o'z ustozi sifatida e'tirof etgan. Shuningdek, Navoiy hazratlari Qosim Anvor, Imodiddin Nasimiy singari ozarbayjon adabiyotining yetuk namoyandalari ijodiga yuksak hurmat ila yondashgan. O'z navbatida, ozarbayjon mumtoz adabiyotining yana bir atoqli vakili Muhammad Fuzuliy hazrat Navoiyning izdoshlaridan sanaladi.

Qadim-qadimdan she'riyatga, adabiyotga oshufta ajdodlarimiz Navoiyni ham, Fuzuliyni ham, Nasimiy va Mashrabni ham bir xil muhabbat va ehtirom ila e'zozlab, mutolaa qilib kelgan, har ikki xalqqa mansub xassos shoirlar yaratgan bebaho durdonalar tarjimasiz tushunilgan.

**– O'zbekiston haqidagi ilk tasavvurlaringiz qachon shakllana boshlagan?**

– Bolaligimdan O'zbekistonga, o'zbek xalqiga qiziqishim, mehru muhabbatim bo'lakcha edi. O'zbek adiblarining ilk asarlarini maktab darsliklaridan o'rganganmiz. Ilk bor o'tgan asrning 70-yillarida Toshkentda o'tkazilgan Xalqaro kinofestivalga kelgandim. Mustaqillik yillarida, ayniqsa, Yangi O'zbekiston davrida shaharlaringiz nihoyatda go'zallashib, zamonaviy qiyofa kasb etibdi. So'nggi yillarda O'zbekistonga bir necha marta keldim. Har gal men bu qardosh o'lkaning yangidan-yangi qirralarini kashf etaman.

Oxirgi marta bir necha hafta muqaddam Toshkentga Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti – TURKSOY tomonidan o'tkazilgan yirik anjuman tufayli keldim. O'zbek qardoshlarimizning kitobga, adabiyotga, ma'rifatga talpinishi, davlat rahbari Shavkat Mirziyoyevning madaniy merosni, adabiyot va san'atni rivojlantirishga qaratayotgan e'tibori tahsinga sazovor. O'zbekistonning yil sayin rivojlanib borayotganidan chin dildan quvonaman.

**– Ikki xalq o'rtasidagi adabiy aloqalarning bugungi holati haqida nimalar deya olasiz?**

– Ikki xalq o'rtasidagi aloqalar tobora rivojlanib borayotgani Ozarbayjonning bir ziyoli vakili sifatida meni nihoyatda shod etadi. Albatta, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamda Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev tashabbuslari bilan bu azaliy do'stlik aloqalari yangi bosqichga ko'tarildi. Xalqlarimiz tobora bir-biriga yaqinlashmoqda. Oramizdagi mehr-muhabbat rishtalari tobora mustahkamlanmoqda. Xususan, ikki yurtning adiblari, yozuvchi va shoirlari, ilm-fan ahli o'rtasidagi yaqinlik ham har birimizni nihoyatda sevintiradi. Har yili mamlakatlarimiz vakillari ishtirokida turli ilmiy anjumanlar, san'at va madaniyat kunlari, uchrashuv va muloqotlar o'tkazilmoqda. Bularning barchasi o'zaro do'stligimiz rivojida muhim omil sanaladi. Kelgusida bu do'stlik hozirgidan ham mustahkam, jo'shqin tus olishini istayman. Bir-birimizning adabiyotimiz, tariximiz, an'analarimiz va qadriyatlarimizni qanchalik chuqur o'rgansak, shu qadar yaqinlashamiz, kelgusi avlodlar uchun o'rnak bo'lamiz.

**– Siz Ozarbayjonning taniqli adiblari – Rasul Rizo va Nigor Rafibeyli xonadonida tug'ilib voyaga yetgansiz. Bu sizning buyuk yozuvchi bo'lib yetishingizning asosiy sababimi?**

– Albatta, ota-ona har bir farzandning voyaga yetishida katta o'rin tutadi. Men ham ota-onam oldida toabad qarzdorman. Ular mening dunyoga kelishim, dunyoni tanishim, dunyoqarashimning paydo bo'lishi va tafakkurim kengayishida beqiyos maqomga ega. Men kitoblar orasida o'sib-ulg'aydim. Uyimizga taniqli yozuvchi-shoirlar tez-tez kelib, adabiy suhbatlar o'tkazib turishgan. Ota-onam bilan adabiyot haqida, san'at, hayot haqida uzundan-uzoq suhbatlar qilganmiz. Ammo har qanday ijodkor ota-onaning har bir farzandi adabiyot sohasini tanlayvermaydi. Chunki insonning o'zida ham adabiyotga qiziqish, muhabbat, iqtidor bo'lishi kerak. Menda ham shunday qiziqish va iqtidor borga o'xshaydi *(kuladi)*.

**– Bugungi yosh avlod vakillarining adabiyotga qiziqishini qanday baholaysiz?**

– Tabiiyki, har ikki mamlakatda kitobga, kitobxonlikka davlat siyosati darajasida katta e'tibor qaratilayotir. Biroq yosh avlodning bularga qiziqishidan, ochig'i, ko'nglim unchalik to'lmaydi. Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar, internet, ijtimoiy tarmoqlar, yana men uncha tushunmaydigan narsalar yoshlarning vaqtini, diqqat-e'tiborini keragidan ortiq band qilayotir. Albatta, yoshlar zamon bilan hamnafas yurishlari darkor, lekin hech narsa, hech qanday yangilik kitobdan uzoqlashish uchun bahona bo'lolmaydi. Bu holatlar, bunday qiziqishlar, hoyu havaslarning barchasi vaqtincha ekaniga ishongim keladi. Adabiyot qadimgi Shumer davridan to bugunga qadar yashab kelyaptimi, demak, bundan keyin ham yashayveradi. Kelgusi avlodlar ham ajdodlarimiz va bizning davrimizda yaratilgan adabiyot durdonalaridan bahramand bo'lishiga, o'zlari ham umrboqiy adabiy asarlar yaratishlariga umidvorman.

**– Bugun insoniyat tarixida yangi davr – sun'iy intellekt davri boshlanyapti. Uning vositasida hatto adabiy asarlarni ham yaratish imkoni vujudga kelmoqda. Sizningcha, bu chinakam adabiyotning kelajagiga tahdid soladimi?**

– Nazarimda, sun'iy intellekt bu – texnik jarayonlar hosilasi. Uning yordamida hayotimiz yanada qulaylashib, ko'plab muammolarning yechimi topilishi turgan gap, ammo uni ma'naviy kamolot cho'qqisi deb bo'lmaydi. Haqiqiy ma'nodagi adabiy asarlar yaratilishi uchun sun'iy emas, tabiiy idrok, inson qalbi va ruhi, uning o'y-xayollari, kechinmalari, tug'yonlari kerak bo'ladi. Badiiy asar yaratish jarayonida adib kezi kelganda sevadi, sevinadi, vaqti-vaqti bilan nafratlanadi, ko'zyosh to'kadi. Bu – faqatgina insonga xos bo'lgan tushunchalar. Sun'iy intellekt ham inson tafakkurining, u yaratgan g'oyalar, fikrlar, yangiliklar mahsuli. Shu bois u insonni quvib o'tolmaydi. U faqat inson irodasidan kelib chiqib, nimalarnidir yarata oladi, unga yordam beradi. Lekin inson va uning his-tuyg'ulari ustidan hokim bo'lolmaydi. Demak, sun'iy intellekt adabiyot kelajagiga tahdid sololmaydi. Harqalay, bu yaqin kelajakda yuz bermasa kerak. Ehtimol, uzoq kelajakda, fantastik asarlarda o'qiganimiz kabi, sun'iy insonlar davri boshlanar va haqiqiy insoniyat ortga chekinar. Biroq bunday kelajakni shaxsan men hech qachon orzu qilmagan bo'lardim.

**– Sizning 30 yilcha avval yozgan "Oq qo'chqor, qora qo'chqor" nomli qissangizda bosh qahramon Ozarbayjonning ikki xil kelajagi bilan to'qnashadi. Birinchi qismda mamlakatning har jihatdan gullab-yashnagan davri, ikkinchisida tanazzul manzaralari tasvirlangan... Sizningcha, Ozarbayjon siz orzu qilgan yorug' kunlarga yetib keldimi?**

– "Oq qo'chqor, qora qo'chqor" qissasi – utopik va antiutopik asar. Birinchi qismda bosh qahramon ideal jamiyatga kirib boradi. Bu faqat orzularda bo'ladigan o'lka. Menimcha, biz hali bu darajaga yetib bormadik. Hali unga yetib borishimiz uchun ancha yo'l yurishimiz darkor. Lekin Yaratganga beadad shukr, asarning ikkinchi qismida nazarda tutilgan "baxtsiz kelajak" ro'y bermadi. Asarda olis kelajakda ichki bo'linishlar, qarama-qarshiliklar natijasida mamlakat parchalanib, xalq og'ir qismatga duchor bo'ladi. Shukrki, bunday badbaxtlik bizga soya solayotgani yo'q. Mamlakatimiz rahbariyati ana shunday muammolarning oldini olib, Ozarbayjonni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqdi. Ammo to'la-to'kis baxtli kelajak, mukammal hayot uchun hali ancha ishlarni amalga oshirishimiz zarur.

**– O'zbekistondagi muxlislaringiz, jumladan, "Xalq so'zi" gazetasi o'quvchilariga tilaklaringiz?**

– O'zbekistonda o'quvchilarim borligini bilaman va bu meni nihoyatda quvontiradi. "Xalq so'zi" minbari orqali ularga, birinchi navbatda, sog'lik-salomatlik, oilaviy baxt va xotirjamlik, qardosh O'zbekistonga yanada ravnaq, tinchlik va farovonlik tilayman. Kitobu adabiyotdan hech qachon ayro qolmasliklarini so'rab qolaman. Mening ijod namunalarim sizlarga manzur bo'lsa, bundan behad baxtiyorman.

**Rustam JABBOROV**
**("Xalq so'zi") suhbatlashdi.**



# SPORT xabarlari

## Futbol: JAHON CHEMPIONATIGA YO'LLANMA OLINDI

*Saudiya Arabistonida futbol bo'yicha o'smirlar o'rtasidagi navbatdagi Osiyo kubogining ikkinchi tur uchrashuvlari o'z yakuniga yetdi.*



"D" guruhida o'yinlarini o'tkazayotgan O'zbekiston "U-17" terma jamoasi Hindiston termasi bilan raqobatlashdi. Uchrashuvda vakillarimiz 3:0 hisobida g'alaba qozondi. Natijada futbolchilarimiz 3 ochkoga ega bo'lib, chorak final va Jahon chempionati yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

Ushbu guruhda Avstraliya termasi ham mazkur yo'llanmalarga ega chiqdi va 13-may kuni O'zbekiston bilan guruh peshqadamligi uchun o'zaro bahs olib boradi. Guruhdagi to'rtinchi jamoa bo'lgan Koreya Xalq Demokratik Respublikasi qit'a birinchiligida ishtirok etishdan bosh tortgani uchun "D" guruhida 3 ta jamoa qatnashmoqda.

## Tennis: MARIYA – "ISTANBUL OPEN" G'OLIBI

*O'zbekistonning uchinchi raqamli tennischisi Mariya Timofeeva Turkiyaning Istanbul shahrida yakuniga yetgan "WTA 125" toifasiga kiruvchi turnir bosh sovrinini qo'lga kiritdi.*

Vakilimiz hal qiluvchi final uchrashuvida dunyoning sobiq 17-raketkasi xorvatiyalik Donna Vekichga qarshi kortga chiqdi. 1,5 soat davom etgan bahsda Mariya turnirning birinchi raqam ostida tasniflangan nomdor raqibini ortiqcha qiyinchiliksiz mag'lubiyatga uchrata oldi – 6:4, 6:2.

Taqqoslash uchun, M. Timofeeva ayni paytda WTA reytingida 136, 29 yoshli Donna Vekich esa 89-o'rinni egallab turibdi. Bu tennischilarning o'zaro o'tkazgan ilk uchrashuvi bo'ldi.

## Boks: MUDDATIDAN OLDIN IKKI G'ALABA

*Angliyaning Manchester shahridagi "Co Op Live Arena" majmuasida uyushtirilgan professional boks oqshomida ikki hamyurtimiz – Bahodir Jalolov va Javohir Ummataliyev ringga ko'tarildi.*



Super og'ir vazn toifasidagi bahsda B. Jalolov navbatdagi jangini xorvatiyalik Agron Smakichiga qarshi o'tkazdi. 10 raundlik bellashuvda Smakichining burchagi sakkizinchi raund avvalida jangni davom ettirishdan bosh tortdi. Natijada Bahodir texnik nokaut orqali zafar quchdi. Mazkur muvaffaqiyat uning professional boksdagi o'n sakkizinchi g'alabasi bo'ldi.

Shuningdek, yana bir vakilimiz, havaskor boksda amaldagi jahon chempioni J. Ummataliyev Polsha vakili Damian Drabikka qarshi ringga ko'tarildi. Yarimog'ir vazn toifasidagi 6 raund etib belgilangan ushbu jangda charm qo'lqop ustamiz ikkinchi raundda raqibini nokaut orqali taslim qildi.

## Og'ir atletika: YURTDOSHLARIMIZ OSIYO BIRINCHILIGIDA

*11 – 18-may kunlari Hindistonning Gandhinagar shahri og'ir atletika bo'yicha kattalar o'rtasidagi Osiyo chempionatiga mezbonlik qiladi.*

Musobaqada 28 ta mamlakatdan 172 nafar atlet qit'a g'olibligi uchun bahs olib boradi. Qit'a birinchiligida O'zbekiston terma jamoasi ham ishtirok etadi.

Jo'rabek Zoirov va Abror Tojimirzayev murabbiyligidagi yurtdoshlarimiz 6 ta vazn bo'yicha o'z imkoniyatlarini sinovdan o'tkazadi. Xususan, A. Ergashev (-65 kg.), H. Matrasulov (-71 kg.), A. Alimjanov (-79 kg.), S. Zafarjonov (-88 kg.), M. Toshtemirov (-94 kg.), A. Abdullayev (+110 kg.) Osiyo chempionatida mamlakatimiz sharafini himoya qiladi.

**Sunnatilla ISLOMOV**
**("Xalq so'zi") tayyorladi.**

## Innovatsiya

# EKOLOGIK TOZA MAHSULOT

*Buxoro davlat universiteti tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti 3-bosqich talabasi Jahongir Nazarov kuzgi xazon barglari vositasida ekologik toza qadoqlash mahsulotlari ishlab chiqarishga oid innovatsion g'oyani ilgari surib,aytsa arzigulik natijaga erishdi.*

Izlanuvchan yurtdoshimiz laboratoriya sharoitida maxsus texnologik jarayonlar asosida xazon barglarini qayta ishlab, biologik parchalanadigan qog'oz va qadoqlash mahsulotlari tayyorlash mumkinligini isbotladi.

Innovatsion rivojlanish agentligi viloyat bo'linmasi bosh mutaxassisi I. Murodovning ta'kidlashicha, ushbu mahsulotlar plastik qadoqlash vositalariga muqobil bo'lib, tabiatga ziyon yetkazmasligi va qisqa vaqt ichida tabiiy ravishda parchalanishi bilan tahsinga loyiq. Qolaversa, gap amalda foydalanilmayotgan, chiqit sifatida qaralayotgan, ayrim hollarda esa yoqib yuboriladigan kuzgi xazon barglarini qayta ishlash haqida bormoqda. Va shu yo'l bilan ekologik muammolarning biriga yechim topish mumkin.

Jahongir hali yosh bo'lishiga qaramay ilmda boshqalar yurmagan yo'ldan borishga, kreativ fikrlashga intiladi. Ushbu g'oya tug'ilganida uncha ishonqiramaganlar ham bo'ldi. Ammo qat'iyatli yigit buni uddaladi. Agar u taklif qilayotgan loyiha amaliyotda qo'llanilsa, o'nlab yangi ish o'rinlari yaratiladi, mahalliy xomashyoni qayta ishlash orqali ekologik toza mahsulotga talab ham qondiriladi.

**Istam IBROHIMOV**
**("Xalq so'zi").**

## Achchiq, ammo ochiq gaplar

*Farg'ona tumanidagi Satkak mahallasi viloyat markaziga yaqin joylashgan tabiati so'lim va xushmanzara hudud hisoblanadi. Mazkur mahallada "Satkak aziz", "Satkak buvo" nomi bilan mashhur tarixiy ziyoratgoh bor. Mullo Abdurahmon Sadkokiy ziyoratgohi esa mamlakatimizning madaniy meros obyektlari ro'yxatiga kiritilgan. Mazkur maskan yilning to'rt faslida ham sayyohlar bilan gavjum.*



# «SATKAK AZIZ» QACHON AZIZ BO'LADI?

Bu yerga nafaqat Farg'ona vodiysi, balki yurtimizning barcha hududi, qo'shni mamlakatlardan ham sayyohlar keladi. O'tgan yili Satkakni Shohimardon, Yordon, Chimyon, Vodil va Avval mahallasi singari tumanning turizm marshrutlari ro'yxatiga kiritish harakati boshlangandi. Satkakliklar ushbu tashabbus ijobat bo'lsa, mahalla obod bo'lishiga umid qilishgandi. Afsuski, bu ish oxiriga yetkazilmadi.

– Hududda 10 ta ichki ko'cha bor, – deydi "Satkak" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Ahmadjon Aminov. – Yaqinda Farg'ona tumani hokimligi mas'ullari Satkak, Murabbiylar, Qir-lola ko'chalariga 2 ta suv minorasi o'rnatish, 4 km. suv tarmog'i tortish bo'yicha dastur ishlab chiqilganini ma'lum qilgan. Eski simyog'ochlarni beton tayanch ustunlarga almashtirish orqali elektr ta'minoti xavfsizligi va uzluksizligini ta'minlash bo'yicha ham va'dalar berilgan. Lekin bu ishlar haligacha boshlanmadi.

Mahalla binosi ancha torligi uchun hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, ijtimoiy xodimga yetarli sharoit yo'q. Aytaylik, "mahalla yettiligi" a'zolaridan biriga murojaatchi kelsa, boshqalar tashqariga chiqib turishga majbur. Mahalla faollarining kuyunchakligi tufayli shu kunlarda hududni katta yo'l bilan bog'lovchi ko'chaga svetofor o'rnatildi. Bungacha maktab o'quvchilari, kattalar ham serqatnov yo'ldan o'tishga juda ham qiynalardi. Ayniqsa, yoz mavsumida kuniga 1-1,5 ming nafargacha sayyoh keladi. Shu sababli hordiq maskanlari, umumiy ovqatlanish shoxobchalari, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tizimli asosda tashkil etish muhim.

Ayni paytda mahalladagi 780 ta oilada 3750 nafar aholi istiqomat qilmoqda. Mahalladagi 29-umumta'lim maktabi 350 o'ringa mo'ljallangan. Bugungi kunda u yerda 460 nafar o'quvchi tahsil oladi. Shu bois darslar ikki navbatda tashkil etilgan. 17-maktabgacha ta'lim tashkilotiga 180 nafar kichkintoy qamrab olingan. Zamonaviy sharoitlar yaratish masalasida mazkur bog'chada ham muammolar bor. Mahalla ahlining murojaati asosida yaqinda 0,4 km. ichki yo'l asfalt qilindi. Mahalladagilar "Tashabbusli byudjet" loyihasining joriy yilgi birinchi bosqichida faol qatnashib, 1 mlrd. 675 mln. so'm yutib olishdi. Bu mablag' evaziga 3 km. ichki yo'llar ta'mirlandi. Ammo mahallada shifo maskani yo'qligi eng og'riqli masala. To'g'ri, bu boradagi e'tirozlardan so'ng mas'ullar tomonidan mahalla binosi yoniga koronavirus pandemiyasi davrida foydalanilgan ko'chma shifoxona binosi olib kelib o'rnatildi. Biroq satkakliklar yuqumli kasallik asoratlari saqlanib qolishi mumkin bo'lgan ushbu tibbiyot punktidan foydalanishni xohlashmadi. Tibbiy xizmatga ehtiyoj sezilganda aholi qo'shni mahalladagi shifo maskani yoki viloyat markaziga borishga majbur bo'lmoqda.

Satkakliklar – dehqonchilik ilmi mirishkori. Qir-adirlar etagida joylashgan tabiati so'lim mahallaning uzum, xurmo, yong'oq, gilos, o'rik singari mevasi mashhur. Bugungi kunda xonadon tomorqalarida sitrus mevalar, pomidor-bodring, turli ko'katlar parvarishlanadi. Soya-salqin ayvonlarda mahalla nuroniylari o'zaro suhbatlashib o'tirishni xush ko'radi. Bir asrlik umr dovoniga yaqinlashayotgan Ulug'xon Xoliqova, Salomat Jamolova, Xoldorali Parpiyev, Tursunali Boymatov mahalla tarixi bilimdonlari. Ularning suhbatiga quloq tutsangiz, ko'z o'ngingizda Satkakning jonli tarixi gavdalanadi. Tabiiyki, nuroniylar farzand va nabiralari hamma kabi sharoitlarga ega bo'lishi, tinch-xotirjam umrguzaronlik qilish orzusi bilan yashamoqda. Xo'sh, "Satkak aziz" qachon aziz bo'ladi?

**Botir MADIYOROV**
**("Xalq so'zi").**

**"Osiyo kubogi – 2027" musobaqasida O'zbekiston milliy terma jamoasi "V" guruhida Bahrayn, KXDR hamda Iordaniya terma jamoalari bilan bahs olib boradigan bo'ldi.**

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-542. 23 409 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. Topshirildi – 04.40 1 2 3 4 5 6